

**Aziza ABDUMANNATOVA,**

*O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi*

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Eshnazarov taqrizi asosida*

## **TALABALARDA MUSIQA TURIZMI VOSITASIDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYAVIY TADBIRLARNING O'RNI**

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarida musiqa turizmi vositasi orqali tolerantlikni rivojlantirish, tolerantlikni rivojlantirishda tarbiyaviy tadbirlarning o'rni haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Talaba, musiqa, turizm, vosita, tolerantlik, rivojlantirish, tarbiyaviy ishlar, tadbir.

## **РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ ТOLERАНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ МУЗЫКАЛЬНОГО ТУРИЗМА**

Аннотация

В статье описывается роль образовательной деятельности в развитии толерантности у будущих учителей музыки средствами музыкального туризма.

**Ключевые слова:** Студент, музыка, туризм, инструмент, толерантность, развитие, воспитательная работа, мероприятие.

## **THE ROLE OF EDUCATIONAL ACTIVITIES IN THE DEVELOPMENT OF TOLERANCE IN STUDENTS THROUGH MUSIC TOURISM**

Annotation

The article describes the role of educational activities in the development of tolerance in future music teachers through the means of music tourism.

**Key words:** Student, music, tourism, tool, tolerance, development, educational work, event.

**Kirish.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar natijasida Yangi O'zbekistonni rivojlantirishning siyosiy – huquqiy, ijtimoiy – iqtisodiy va ilmiy – ma'rifiy asoslari yaratilmoqda. “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning turmush darajasini oshirish, iqtisodiy sohani rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan “2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60- sonli Farmonida “Yoshlarning ma'naviy intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash”, - masalalariga alohida e'tibor qaratilgan[1].

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 11-iyuldagi “Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora – tadbirlari to'g'risida”gi PQ- 4391- sonli Qarori, 2019-yil 11-iyuldagi PF- 5763- sonli “Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora – tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi zimmasiga bir qator pedagogik vazifalar yuklatildi, ya'ni:

-Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi sohasida zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

-Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ma'naviy-axloqiy mazmunini kuchaytirish, yoshlarni mustaqillik g'oyalari sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yot g'oya va mafkuralarga qarshi imunitetni mustahkamlash belgilab berildi [2].

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31- dekabrda 1059-sonli Qarori bilan “Uzluksiz ma'anaviy tarbiya Konsepsiyasi” qabul qilindi. Ushbu konsepsiyada “O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim tizimi o'quv dasturlarini, ma'naviy-ma'rifiy rejalarini asosida o'quvchi va talabalarning yoshiga mos tayanch ma'naviy-axloqiy fazilatlar -Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, ma'suliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik rivojlantiriladi”, - deb ta'kidlangan[3]. Ushbu vazifalarni amalga oshirish ko'p jihatdan bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ham ma'suliyatni oshiradi.

**Adabiyot tahlili.** Akademik R. N. Djurayev ta'kidlaganidek, “Buning uchun ular Yangi O'zbekistonning o'qituvchisi, degan yuksak ma'naviy va intellektual maqomga ko'tarilishlari kerak. Ular avvalo vatanparvar bo'lishlari, bolalarni, pedagogik ishini sevishlari, dars o'tish mahoratini kun sayin oshirib borishlari, ta'lim tarbiyaning zamon talablariga mos bo'lishiga intilishi, mehnatsevarlik, haqiqatgo'ylik, optimizm, irodalilik, notiqlik, pedagogik takt, ijodkorlik, tashkilotchilik mahoratiga ega bo'lishlari, sabrli bag'rikeng, qat'iyatli, intizomli bo'lishlari zarur. Yangi O'zbekistonning o'qituvchisiga shunday mas'uliyat yuklatilmoqda” [4].

Talaba-yoshlarda, shu jumladan, Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bo'lajak musiqa o'qituvchilarida musiqa turizmi vositasida tolerantlikni rivojlantirish-dolzab vazifalardan biridir. Bu vazifalarni amalga oshirishda yoshlar turizmining imkoniyatlaridan o'rinni foydalanish lozim. Tadqiqotchi M. Husenova o'zining “Yoshlar turizmi” nomli ilmiy risolasida “Butun jahon yosh talabalar va sayohat ta'limi konfederatsiyasi (WVSETS) “turizm” ta'rifiga ota-onalari yoki nazorat qiluvchilarsiz yoshlarning “mustaqil sayohati” tushunchasini kiritdi. Ularning barchasini inobatga olgan holda BTT “yoshlar turizmi”ga quyidagicha ta'rif beradi: “Yoshlar turizmi bir yildan uzoq bo'lmagan muddatda 16-29 yoshgacha bo'lgan shaxslarning xalqlar madaniyatlarini o'rganish, hayotiy tajribaga ega bo'lish va bilimlarini oshirish kabi barcha mustaqil sayohatlarini o'z ichiga oladi.” Ko'pincha mamlakatlar turizm sohasini rivojlantirish orqali nafaqat iqtisodiy foydaga erishishini, balki o'zlarining milliy urf-odat va an'analarini saqlab qolish, uni jahon hamjamiyatiga namoyon etish va bu orqali o'zaro do'stona munosabatlarni rivojlantirishni ko'zlashmoqda. Bu borada yoshlar turizmi katta ahamiyatga ega bo'lib, uning o'ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-Yoshlarning o'ziga xalqlarning urf – odat va an'analarini o'rganishga qiziqishlari katta bo'ladi.

-Yoshlar o'zga millat va elatlarni bilish orqali ularni hurmat qilishni o'rganishadi. Bu esa o'z navbatida kelajakda davlatlar o'rtasidagi o'zaro do'stona aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi" [5].

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Sayohatlar sonini oshirish chora – tadbirlari ko'rilmoqda. Jumladan, yaqinda Samarqand shahrida o'tkazilgan Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh assambliyasining 25-sessiyasi 178 davlatdan tashrif buyurgan turizm sohasi yetakchilari jamul -jam bo'ldi. Bu dunyo jamiyatida O'zbekistonning Xalqaro maydonda ochiq, faol rivojlanib borayotgan mamlakat sifatida e'tirof etilishining yana bir dalilidir. So'ngi yillarda salkam yuzta mamlakat fuqarolari uchun O'zbekistonga vizasiz kirish tizimi, 55davlat fuqarolari uchun soddalashtirilgan elektron viza tartibi joriy etildi. Mehmonxona o'rinlari soni 140mingga yetkazildi, 70ta yangi sayyohlik markazlari ochildi, 8 ta xususiy aviakompaniya ish boshladi. Muhimi, O'zbekistonga kelayotgan xorijlik sayyohlar soni ikki barobar ko'payib, turizm eksportdan tushayotgan daromad 4 barobar o'sdi. Ayni paytda yurtimiz tez rivojlanayotgan turizm maskani va eng xavfsiz davlat sifatida xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallayotganligi har birimizni quvontiradi.

Sessiyadagi jahon hamjamiyati tomonidan alohida e'tirof etilgan voqelik – davlatimiz rahbari delegatlarni Samarqandni "Madaniy turizmning xalqaro poytaxti" deb e'lon qilishi va tegishli deklaratsiyalarni imzolashga doir tashabbusini qo'llab – quvvatlashga chiqirgani bo'ldi. Bu taklif O'zbekistonning sayyohlik salohiyatini yanada yuqori darajaga ko'tarilishiga imkon beradi.

Pedagogika fanlari doktori (Ds) Sh. Mustafayevning ta'kidlashicha "Aqlga, hissiyotlarga, tajribalarga, insonning hatti-harakatlariga, uni ongli va ongsiz, ratsional va intuitiv jihatlariga har tamonlama ta'sir qilish orqali san'at ko'plab pedagogik vazifalarni parallel hal qilish imkoniyatini beradi"[6].

Talaba – yoshlarda shu jumladan, bo'lajak musiqa o'qituvchilarida musiqa turizmi vositasida tolerantlikni rivojlantirishda tarbiyaviy tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalarida tarbiyaviy jarayon va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish talaba - yoshlar tarbiyasida muhim o'rin egallaydi.

Tadqiqotchilar R.Ishmuhammedov, M. Yuldoshevlarning ta'kidlashicha: "Ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish bosqichida turgan jamiyatimiz hozirgi kunda malakali kadrlar tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirish muammosini qo'ymoqda. Shu munosabat bilan oliy ta'lim tizimi oldida jamiyat uchun chuqur bilimli, muayyan mutaxassislik malakalarini chuqur egallagan shaxslariga emas, balki ayni vaqtda davr talablariga javob bera oladigan yuksak insoniy fazilatlariga hamda insoniy qadrlariga ega shaxslar va uning fidoyisi, xalqiga sodiq, jamiyatda fuqarolik kasb va ma'suliyatini yaxshi anglagan, hayotda va ish faoliyatida o'z o'rnini topa oladigan, o'z Vatanning kelajagi va ravnaqi uchun xizmat qila oladigan raqobatbardosh, madaniyatli shaxs- mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasini ado etishni talab etadi" [7].

**Muhokama.** Keyingi yillarda respublikamizda sohalar bo'yicha taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarilib fuqarolarda, shu jumladan, talaba – yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik tushunchalari yangi mazmun bilan boyitib borilmoqda. Axiqrog'i, barcha fuqarolarda, talaba - yoshlarda imon – etiqod, mustahkam bilim, fidoyilik, vatanparvarlik, sadoqatlilik, xalqparvarlik, kabi insoniy fazilatlar shakllanib, ularda mamlakatning kelajagiga ishonchlarini tobora ortib bormoqda. Natijada imon – etiqodli, bilimli, ona – Vatanga sadoqatli, bag'rikeng, xalqparvar, mehnatsevar bir so'z bilan aytganda har tomonlama rivojlangan barkamol avlod shakllanmoqda. Talaba – yoshlarda yuqorida nomlari keltirilgan sifatlarini shakllantirishda shubhasiz, oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan tarbiyaviy, tadbirlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'tkazilayotgan tadbirlarning natijasi ularning tahliliga bog'liq. Shu bois har bir tadbirning maqsadi, uning amalga oshirish mexanizmi pishiq- puxta tuzilishi lozim. O'tkazilayotgan tadbirlar talabaga qanday ma'naviy ozuqa berdi, tadbirlarda talabalarning ishtiroki, ularning qiziqishi, tarbiyachi va tashkilotchilarning pedagogik mahoratlari, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishdagi bilim, ko'nikma va malakalari, tashkilotchilik, konstruktivlik, kommunikativlik qobiliyatlari, har bir tarbiyaviy tadbirga aksiologik, kreativ, refleksiv, yondoshuvlariga bog'liq.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida musiqa turizmi vositasida tolerantlikni rivojlantirish maqsadida Samarqand shahrida tug'ilib voyaga yetgan, xonanda va sozanda, O'zbekiston xalq artisti, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi, "Shashmaqom"ning mohir ijrochisi o'zbek va tojik mumtoz qo'shiqchiligi san'atining darg'alaridan biri Hoji Abdulaziz Abdurasulovning uy – muzeyiga qilingan musiqiy ziyoratning tahlilini keltiramiz.

**Natija va tahlillar.** Samarqand bulbuli Hoji Abdulaziz Abdurasulovning uy –muzeyiga qilingan musiqiy ziyorat tahlili:

Maqsad: Talabalarga mumtoz qo'shiqchilik san'atida o'zidan boy va o'chmas musiqiy meros qoldirgan Hoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va faoliyati, musiqa tarixidagi o'rni, Samarqand san'ati sayqalining musiqiy merosi haqida ma'lumotlar berish orqali talaba – yoshlarda tolerantlikni rivojlantirishdan iborat.

Sayohat rejasi:

1. Hoji Abdulaziz Abdurasulovning hayoti va faoliyati to'g'risida talabalarga ma'lumot berish.
2. O'zbek musiqa san'atida buyuk hofizning o'rni
3. Hoji Abdulaziz Abdurasulov haqida zamondoshlarining fikrlari
4. Buyuk hofiz ijodida xalqlar do'stligining kuylanishi
5. Hofizning uy – muzeyi musiqiy ziyoratgoh

Hoji Abdulaziz Abdurasulov o'z ijodiy faoliyati bilan o'zbek va tojik madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan mashhur san'atkorlardan biri. U "Shashmaqom"ning yetuk bilimdoni, sozanda va bastakor sifatida, sohir ovoz va takrorlanmas qo'shiqlari orqali san'at olamida o'chmas iz qoldirdi. Mashhur hofiz 1852-yilda yer yuzining sayqali bo'lgan Samarqand shahrining Ko'k Masjid g'uzarida hunarmand kosib Abdurasul ota xonadonida dunyoga keldi. Otasi asli kelib chiqishi Tojikistonning Qorategin viloyatidan bo'lib, Samarqandga ukasi bilan mardikorlik qilishga keladi. Bu haqida tadqiqotchi A. Sharipovning "Hofiz yurgan yo'llarda" kitobida tegishli ma'lumotlar berilgan. U ishlab yurganida keksa bir kosibga yoqib qolgan. Undan kosiblik sirlarini o'rgangan. Kosib qizi Maryamni unga beradi. Ulardan bo'lajak mashhur hofiz Abdulaziz dunyoga keladi. Hofizning otasi do'mbirada o'zbek va tojik xalq qo'shiqlarini xirgoyi qilib yurgan. Yosh Abdulazidza musiqaga qiziqish otasining ijro etgan kuy – qo'shiqlari orqali shakllandi. Otasi uni 6-7 yoshga yetganda eski boshlang'ich maktabga beradi. Zehni o'tkir bo'lganligi sababli to'rt yil ichida boshlang'ich maktab saboqlarini o'zlashtirib, madrasaga o'qishga kiradi. Abdulaziz 7-8 yoshlaridayoq Umar Xayyom, Hoja Hofiz, Shayx Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Bedil g'azallarini yoddan bilgan. U musiqiy limning sir – asrorlarini o'z davrining taniqli sunaychi - Mirzo Mehtardan, tanbur chertishni – Hoji Rahmonqul degan sozandadan, ashula aytish yo'llarini Boruxi Kalhaqdan o'rgangan. Ushbu ustozlar Abdulazizni "Shashmaqom" olamiga olib kirishgan. U ikki marta haj safarida bo'lgan. Birinchi marta 1881-1892 yillarda, ikkinchi marta 1907-1908 yillarda. Haj safari davomida Gvineya, Gana, Uganda, Nigeriya kabi Afrika davlatlarida, Pokiston, Hindiston, Afg'oniston, Eron, Turkiya, Xitoy kabi mamlakatlarda bo'lib, ularni san'ati bilan tanishgan. O'zining kuy – qo'shiqlarini yaratishda qardosh xalqlar san'atidan

foydalangan. Haj safaridan keyin, Buxoroga borib, taniqli san'at bilimdoni Ota Jalol Nosirovdan "Shashmaqom"ni to'liq va puxta o'rgangan. Hoji Abdulaziz Abdurasulov 1924-yilda Samarqand pedagogika bilim yurtida yoshlardan iborat konsert truppasini tashkil qiladi va o'lkamiz bo'ylab konsertlar namoyish qilgan.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov 1928-yil 12-aprelda Samarqandda Respublika Maorif Xalq Komissarligi tomonidan tomonidan Sharq mamlakatlarning musiqiy ilmiy – tadqiqot instituti (Samarqand va Xoreografiya ilmiy – tadqiqot instituti)ga ishga taklif qilinadi.

U institutda faqat o'qituvchilik faoliyati bilan cheklanmay, ijrochilik faoliyatini ham davom ettirgan. Hofizning ovoz tembri – lirik tenor bo'lib, alohida nolalai va keng diapozonga ega bo'lgan. Shu bois, xalq uni ardoqlab "Samarqand bulbuli" deb atagan. 1933-yilda Toshkentda san'atkorlarning birinchi anjumani bo'lib o'tadi va bu anjumanga Hoji Abdulaziz Abdurasulov ham taklif qilinadi. Anjuman munosabati bilan o'tkazilgan konsertda Hoji Abdulaziz Abdurasulov Domla Halim Ibodov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Madyusuf Xarratov va Yunus Rajabiy bilan birgalikda "Ushshoq" ashulasini ijro etishadi. Bu vaqtda Hofiz 80 yoshda edi. Anjumandan keyin Hoji Abdulaziz Abdurasulovdan gramplastinkaga "Qashqarchai ushshoq", "Ufori beboqcha" ashulalari yozib olinadi. Anjumandan so'ng Hoji Abdulaziz Abdurasulov va Domla Halim Ibodovlarga "O'zbekiston Xalq Hofizi" yuksak unvoni berildi. Hofiz 1936-yil 9-yanvar kuni vafot etadi.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov o'z ijodiy faoliyatida o'zbek va tojik musiqa madaniyatiga salmoqli hissa qo'shdi. Aniqrog'i, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan kuy – qo'shiqlar to'la – to'kis ijro etib kelinmoqda, maqomlarga sayqal berishda hofizning xizmati katta. Shuningdek, hofiz juda ko'p shogirdlar tarbiyalab yetishtirgan.

Jumladan, Yunus Rajabiy ustoz hofizning musiqiy merosini notalarga ko'chirib, unga umr bag'ishlagan sadoqatli shogirdlaridan bo'lgan Yunus Rajabiyning fikricha Hoji Abdulaziz "Shashmaqom"ning "Buzruk", "Dugoh", "Iroq", "Mustahzod" shobalarini puxta ijro etgan. "Samarqand ushshog'i" ashulasi "Ushshog'i Hofiz" nomi bilan mashhur bo'lgan ketganligi ham bejiz emas. Hofiz Buxoro shashmoqomini mukammal o'rganib uni dutorda aytib boyitgan. Shuningdek, Hofiz Eron, Afg'oniston, Arabiston, Iroq, Hindsitonda o'z ijrochilik san'ati bilan tanilgan.

Samarqandda yaratilgan ushbu ijrochilik maktabi umummilliylikning bebaho mulkiga aylandi. Mashhur Hofizning Yunus Rajabiy, Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqov, Imomjon Ikromov, Mutal Burxonov, Doni Zokirov, Manas Liviye, Sulaymon Yudakov, Nabijon Hasanov, Qori Siroj Yusupov, Sharifjon Akramov kabi iste'dodlar musiqa san'atining rivojiga katta hissa qo'shib, yetuk ustoz- shogird an'alarini davom ettirib kelayotir".

Atoqli yozuvchi Sadriiddin Ayniy Hofizning 1918-yilda Buxoroga borish to'g'risida quyidagi fikrlarini bildirgan edi: "Biz Labi Hovuz madrasasidagi kechki suhbatlarning hamma ishtirokchilari musiqani sevar edik.... Sanqiso Ashrafjonning sa'yi harakati bilan bazm tashkil etildi. Hoji shu kecha Bedilning, Kamol Xo'jandining lirik she'rlaridan bir necha g'azalini aytdi. Hoji Abdulaziz bilan birinchi uchrashuvim va tanishuvim shunday bo'ldi" [8].

Shuningdek Hofiz to'g'risida atqli ma'rifatparvar Ahmad Donish "Antik dunyo" Xalqaro ilmiy akademiyasi profosseri, "Turon akademiyasi"ning faxriy akademigi Asliddin Hoji Sirojov ham iliq fikrlarni bildirgan.

Pedagogika fanlari doktori, professor M. Quronovning ta'kidlashicha: "Yaqin yillargacha Hoji Abdulaziz Abdurasulov yashagan xonadon xususiy xonadon bo'lib kelgan. Buning oqibatida san'at oshiqclarining bu ziyoratgoh maskani qo'ldan – qo'lga o'tib ancha g'arib holga kelib qolgan edi. Viloyat hokimi E.O. Turdimovning tashabbusi bilan 2019-yilda Hoji Abdulaziz Abdurasulovning hovlisi madaniyat maskani sifatida davlat himoyasiga olindi. Natijada uy- muzeyining sotilib, madaniy meros sifatida yo'q bo'lib ketishining oldi olindi va to'liq ta'mirlandi. Uy-muzey ilmiy konsepsiya va milliy dizayn asosida jihozlandi.

Bugungi kunda Hofiz ijod qilgan xonadon Samarqand san'atining mumtoz dargohi, go'zal ziyoratgohga, turizm obektiga aylandi. Uy – muzey nafaqat mamlakatimiz, Markaziy Osiyo san'atsevarlarining, balki xorijlik sayyohlarning qalblarini rom etmoqda. Ayniqsa, bu uy – muzey san'at maktablari, kollejlari, oliy ta'lim muassasalari talabalari – bo'lajak Abdulazizlarning sevimli maskaniga aylandi".

**Xulosa.** Bo'lajak musiqa o'qituvchilari bilan Hofizning uy – muzeyiga qilingan sayohat vositasida talabalarda:

-Milliy san'atimiz darg'asining hayoti va faoliyati to'g'risida tushunchalar shakllanadi, yangi ma'lumotlar bilan boyitiladi;

-Ulug' san'atkorlarning hofiz to'g'risidagi mulohazalaridan bahramand bo'lishadi;

-Hoji Abdulaziz Abdurasulov kuy va qo'shiqlarida xalqlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlikni kuylab o'tganligiga ishonch hosil qilishadi;

-Hofizning uy – muzeyi nafaqat mahalliy sayyohlar uchun balki xorijlik sayyohlar uchun ham ziyoratgoh va turizm maskani ekanligi, bu yerga sayohat qilish talaba – yoshlarda tolerantlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bunday tarbiyaviy tadbirlarni milliy madaniy markazlarda, xalq baxshilarining uy – muzeylarida, "Maqom markazlari" da ham tashkil etish ijobiy samara beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF – 60- sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'limi sohasida boshqaruvni isloh qilish chora – tadbirlari to'g'rida"gi PF – 5763- sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31- dekabrda "Uzluksiz ma'naviy – tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli Qarori.
4. Ibragimov X. Quronov M Umumiy pedagogika – T.: "Sahhof", 2023, 416 b.
5. M.G.Husenova Yoshlar turizmi. Ilmiy risola Samarqand SamISI, 2018, 48 bet.
6. Sh. Mustafayev. ART PEDAGOGIKA. Darslik. Samarqand, 2022- yil SamDU nashriyoti.
7. R. Ishmuhammedov, M. Yuldoshev Ta'lim va tarbiya innovatsion pedagogik texnologiyalar. T.: 2017, 368 bet
8. A. Murodov, A.Rahmat Samarqand bulbuli. T.: "Fan ziyosi", - 2023, 116 bet.